



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA QOIDALARI
VA ME’YORLARI, GIGIYENA NORMATIVLARI**

**ISH JOYLARIDA YO‘L QO‘YILADIGAN
ELEKTROSTATIK MAYDONLAR DARAJALARINING
SANITARIYA ME’YORLARI**

**O‘zbekiston Respublikasining
0335-16- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2016 yil



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA QOIDALARI
VA ME’YORLARI, GIGIYENA NORMATIVLARI**

«TASDIQLAYMAN»

**O‘zbekiston Respublikasining Davlat
bosh sanitariya vrachi**

_____ **S.S. Saidaliyev**

«01» iyul 2016-yil

**ISH JOYLARIDA YO‘L QO‘YILADIGAN
ELEKTROSTATIK MAYDONLAR DARAJALARINING
SANITARIYA ME’YORLARI**

**O‘zbekiston Respublikasining
0335-16- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2016 yil

Ishlab chiquvchi muassasa:

- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy-tadqiqot instituti (O‘zR SSV SGKK ITI)
- Toshkent tibbiyot akademiyasi (TTA)

TUZUVCHILAR:

Iskandarov T.I.	O‘zR SSV SGKK ITI laboratoriya mudiri, loyiha rahbari, t.f.d., professor, O‘zR FA akademigi
Magay M.P.	O‘zR SSV SGKK ITI Fizikaviy omillar laboratoriyasi mudiri, t.f.n., k.i.x.
Iskandarova G.T.	TTA Kommunal gigiyena va mehnat gigiyenasi kafedrasi mudiri, t.f.d., professor
Tashpulatova G.A.	O‘zR SSV SGKK ITI katta ilmiy xodimi, t.f.n.
Adilov U.X.	O‘zR SSV SGKK ITI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

TAQRIZCHILAR:

Zaredinov D.A.	ToshVMOI “Gigiyena” kafedrasi mudiri, t.f.d., professor
Almatov B.I.	O‘zR SSV Respublika DSENM bosh vrachi
Shamansurova X.Sh.	O‘zR SSV SGKK ITI katta ilmiy xodimi, t.f.n., k.i.x.

O‘zR Sog‘liqni saqlash vazirligining Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ITI Ilmiy kengashi yig‘ilishida muhokama qilingan va ma’qullangan (2016-yil 23-fevraldagi 2-sonli bayonnoma)

O‘zR SSV huzuridagi Atrof-muhitning potensial noqulay omillarini gigiyenik tartibga solish qo‘mitasi yig‘ilishida muhokama qilingan va ma’qullangan (2016-yil "_____" _____dagi _____-sonli bayonnoma)

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazilgan. 2016-yil "_____" _____dagi _____-sonli xat

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy-tadqiqot institute

MUNDARIJA

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlaridan ko‘chirma

2.	Mundarija	4
3.	Umumiy qoidalar	5
4.	Elektrostatik maydonlar kuchlanganligining ruxsat etilgan darajalari	6
5.	Nazoratni o'tkazish talablari. Tavsiya etilgan o'lchov asboblari	6
6.	Ishchilarni himoya qilish vositalariga qo'yiladigan talablar	7
7.	Ilova	8

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu normalar quyidagilarni belgilaydi:

- yuqori kuchlanishli o'zgarmas tok elektr qurilmalaridan foydalanuvchi xodimlarning ish joylarida elektrostatik maydonlar kuchlanganligining ruxsat etilgan chegaraviy darajalari (dielektrik materiallarni elektrlashtirishda, portlash va yong'in xavfi bo'lgan aralashmalar hosil qiladigan elektrostatik maydonlar bundan mustasno);

- nazoratni o'tkazish va himoya vositalariga hamda tavsiya etiladigan o'lchash asboblari qo'yiladigan umumiy talablar.

1.2. Sanitariya me'yorlari va qoidalari 2015 yil 26-avgustdagi 393-sonli "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonunni amalga ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Sanitariya me'yorlari quyidagilar uchun majburiydir: barcha vazirliklar, idoralar; elektrostatik maydon kuchlanganligi bo'yicha potensial xavfli bo'lgan yuqori kuchlanishli o'zgarmas tok elektr qurilmalarini loyihalashtiruvchi, quruvchi va ulardan foydalanuvchi tashkilotlar; mulkchilik shaklidan qat'i nazar, elektrostatik maydon kuchlanganligini pasaytirish tadbirlarini o'tkazuvchi tashkilotlar; ishchilarning mehnat sharoitlari ustidan davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi sanitariya-epidemiologiya xizmati muassasalari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 sentyabrda 263-sonli "Xodimlar mehnatini muhofaza qilish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ish o'rinlarini attestatsiyadan o'tkazish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar va muassasalar.

1.3. Ushbu me'yorlar talablari elektrostatik maydonlar bo'yicha potensial xavfli bo'lgan yuqori kuchlanishli o'zgarmas tok elektr qurilmalariga konstruktiv va ekspluatatsion talablarni tartibga soluvchi me'yoriy-texnik hujjatlar, texnik shartlar, yo'riqnomalar, uslubiyotlar va shu kabilarda hisobga olinishi shart.

1.4. Sanitariya me'yorlarini amalga kiritish muddati ular tasdiqlangan vaqtdan boshlab belgilanadi.

Ushbu hujjat kiritilishi bilan O'zR SanPiN № 0121-01 o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

2. Elektrostatik maydonlarning ruxsat etilgan kuchlanganlik darajalari

2.1. Elektrostatik maydonlarning ruxsat etilgan kuchlanganlik darajalari xodimlarning ish joylarida bo'lish vaqtiga qarab belgilanadi.

2.2. Ish kuni davomida xodimlarning ish joylarida elektrostatik maydon kuchlanganligining ruxsat etilgan eng yuqori darajasi 20 kV/m etib belgilanadi.

2.3. Elektrostatik maydonlarning ruxsat etilgan eng yuqori kuchlanganlik darajasi (Echegaraviy) 1 soat davomida 60 kV/m etib belgilanadi.

2.4. Elektrostatik maydon kuchlanganligining 20 dan 60 kV/m gacha bo'lgan oralig'ida xodimlarning himoya vositalarisiz bo'lishining ruxsat etilgan vaqti $t_{\text{доп}}$ soatlarda quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$t_{\text{доп}} = \frac{(E_{\text{пред}})^2}{E_{\text{факт}}}, \text{ bunda}$$

$E_{\text{факт}}$ - elektrostatik maydon kuchlanganligining haqiqiy qiymati, kV/m.

2.5. Elektrostatik maydon kuchlanganligi 20 kV/m dan past bo'lganda, bu hududda bo'lish vaqti cheklanmaydi.

3. Nazorat o'tkazish talablari. Tavsiya etiladigan o'lchov asboblari

3.1 Elektrostatik maydonlar kuchlanganligini nazorat qilish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- yangi yuqori kuchlanishli o'zgarmas tok elektr qurilmalarini foydalanishga topshirishda;
- materiallarni elektrlashtirishga olib keladigan yangi texnologik jarayonni joriy etishda;
- elektr qurilmalar tuzilishi va texnologik jarayonlarning har qanday o'zgarishidan keyin hamda ta'mirlash ishlari o'tkazilgandan so'ng;
- yangi ish o'rnini tashkil etishda;
- amalda bo'lgan elektr qurilmalari va texnologik jarayonlarni joriy nazorat qilish tartibida;
- ish o'rinlarini attestatsiyadan o'tkazishda;
- mahsulotni sertifikatlash sinovlarida.

3.2. Elektrostatik maydonlarning kuchlanganligi ishchilarning boshi va ko'kragi darajasida, ular yo'qligida, kamida uch marta nazorat qilinadi. O'lchangan maydon kuchlanganligining eng yuqori qiymati hal qiluvchi hisoblanadi.

3.3. Elektrostatik maydon kuchlanganligini o'lchash 0,3 dan 300 kV/m gacha bo'lgan oraliqda amalga oshiriladi. O'lchash uchun quyidagi asboblarni tavsiya etiladi:

- a) ish zonasida – "IESP-01", "IESP-7" (Rossiya);
- b) materiallar va mahsulotlar sirtida – "IESP-6" va "IESP-6M" (Rossiya).

3.4 O'lchash natijalari maxsus jurnalda qayd etilishi va ilovaga muvofiq ma'lumotlar ko'rsatilgan holda bayonnoma shaklida rasmiylashtirilishi lozim.

4. Ishchilarni himoya qilish vositalariga qo'yiladigan talablar

4.1. Ishchilarni himoya qilish vositalarini qo'llash ish joylarida elektrostatik maydonlarning kuchlanganlik darajalari 2.2-bandda ko'rsatilgan darajalardan oshgan hollarda zarur hisoblanadi.

4.2. Elektrostatik maydonlardan himoya qilish vositalari amaldagi O'zbekiston Respublikasi Davlat standartlariga muvofiq qo'llanilishi kerak.

Ilova (tavsiya etiladi)

BAYONNOMA
elektrostatik maydon kuchlanganligini o'lchash

1. Tekshiruv o'tkazilgan sana va joy: 20____ yil
“ _____ ”
 2. Elektr qurilmaning nomi va turi, ishlab chiqarilgan yili, kun davomida ishlash vaqti, zavod raqami.
 3. O'lchash joylari (balandlikda maydondan masofa).
 4. O'lchash asbobi (turi, zavod raqami, Davlat tekshiruvi ma'lumotlari).
 5. O'lchashlar o'tkazilgan me'yoriy-texnik hujjatlar.
 6. O'lchashlarni amalga oshirgan shaxsning familiyasi va lavozimi, o'lchashlar qaysi korxona huzurida o'tkazilgan bo'lsa, o'sha korxonadagi vakil shaxsning familiyasi.
-
7. Sanitariya me'yorlariga muvofiqlikni baholovchi xulosani tuzish.
 8. Ruxsat etilgan darajadan oshib ketgan hollarda xodimlarni himoya qilish bo'yicha tavsiyalar.
 9. Imzolar: